**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI**

# KOMPYUTER ILMLARI VA MUHANDISLIK TEXNOLOGIYALARI

***mavzusidagi Xalqaro ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami***

**2026-yil 25-26-sentabr**

**(2-qism)**

**JIZZAX-2026**

Kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari. Xalqaro ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami – Jizzax: O‘zMU Jizzax filiali, 2026-yil 25-26-sentabr. 315-bet.

Xalqaro miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globallashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur’atlar bilan rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e’tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarni qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma’ruza tezislari to‘plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo‘nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o‘qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas’ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M.

Tahrir hay’ati a’zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), prof. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Aliqulov S.T., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dots. Alibayev S.X., т.f.f.d.(PhD), dots. Abdumalikov A.A, p.f.f.d.(PhD) Hafizov E.A., f.f.f.d.(PhD) dots., Norbekova B.Sh. p.f.f.d.(PhD) dots. Sindorov L.K., t.f.f.d.(PhD), dots. Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD) O‘ralov A.I., p.f.n., dots. Aliqulov S.T., t.f.f.d.(PhD) Kuvandikov J.T., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Sharipova S.F., Jo‘rayev M.M.

Mazkur to‘plamga kiritilgan ma’ruza tezislarining mazmuni, undagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

# O‘SMIRLIK DAVRIDA KECHADIGAN IJTIMOIY PSIXOLOGIK MEXANIZMLAR

***Arakulov Gayrat Tulkinovich,***
***Shokirov Abduxalil Abdurasul o‘g‘li***
*O‘zbekiston Milliy Universitetining Jizzax filiali*

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘smirlik davrida kechadigan ijtimoiy psixologik mexanizimlarning nazariy metodologik asoslari tadqiq etilgan. Maqola bugungi kun ijtimoiy psixologiya, yosh davrlar psixologiya fanlarining amaliy-tadbiqiy nazariy yo‘nalishlari va istiqbollari haqida yanada chuqurroq tasavvur hosil qilish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: ommaviy axborot, o‘zidan qoniqmaslik, axloqiy talablar, krizis, xulq-atvor, qaysarlik, agressivlik.

Hozirgi kunda o‘smirlarda tajovuzkor xulq namoyon bo‘lishining diagnostikasi va korreksiyasini amalga oshirishning psixologik usullarini takomillashtirish hamda xalqaro baholash dasturlarini keng joriy etish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. O‘smirlar ta’lim-tarbiyasi va kelajagiga e’tiborni kuchaytirish mamlakat taraqqiyoti, yurt kelajagi va xalq farovonligini ta’minlashga xizmat qiladi. Shu ma’noda so‘ngi yillarda mamlakatimizda ma’nan yetuk, jismonan sog‘lom yosh avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish, ularning huquq va manfaatlarini ta’minlash, izlanish va iste’dodini qo‘llab-quvvatlash davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Yangi O‘zbekiston bunyodkorlari bo‘lgan yoshlarning chuqur bilim olishi va iste’dodini keng namoyon etishi uchun barcha sharoit yaratildi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, yoshlarni kamol toptirishda ularning xususiyatlarini to‘la hisobga olgan holda ta’lim-tarbiya tadbirlarni qo‘llash shaxslararo munosabatda anglashilmovchilikni vujudga keltirmaydi. Insonning ruhiy dunyosini tubdan qayta qurish, shaxsni shakllantirishni insonparvarlashtirish harakati boshlangan hozirgi kunda o‘smirlar taqdiri masalasi ham g‘oyat jiddiy tus oldi. O‘smirlik yoshida bolalikdan kattalik holatiga ko‘chish jarayonida sodir bo‘ladi. O‘smirda psixik jarayonlar keskin o‘zgarishi bilan aqliy faoliyatida ham burilishlar seziladi. Shuning uchun shaxslararo munosabatda o‘quvchi bilan o‘qituvchining muloqotida, kattalar bilan o‘smirlarning muomalasida qat’iy o‘zgarishlar vujudga keladi. Bu o‘zgarishlar jarayonida qiyinchiliklar tug‘iladi. Odobli, dilkash o‘smir kutilmaganda qaysar, intizomsiz, qo‘pol, serzarda bo‘lib qoladi. Kattalarning yo‘l-yo‘riqlariga, talablariga muloyimlik bilan javob qaytarib yurgan o‘smir ularga tanqidiy munosabatda bo‘ladi. Uning o‘z qadr-qimmati haqidagi tasavvuri, narsa va hodisalarga munosabati oqilonalikdan uzoqlasha boshlaydi, u ayrim ma’lumotlarni tushuntirib berishni yoqtirmaydigan bo‘lib qoladi. Natijada kelishmovchiliklar, anglashilmovchiliklar, nizolar kelib chiqadi. O‘smirlik davrda chekish hamda spirtli ichimliklarga qiziqib qolishlari ham mumkin. Ko‘pgina o‘smirlarda o‘zidan qoniqmaslik holati kuzatiladi. Bu esa o‘smirda o‘zi haqida salbiy fikr va qo‘rquvni

yuzaga keltirishi mumkin. Krizis boladagi mavjud tushkunlik, yolg‘izlikka intilish, passivlik yoki aksi, o‘jarlik, qaysarlik, agressivlik, hayotga salbiy munosabatlarning kechishida namoyon bo‘ladi. Bunday paytlarda u o‘zi singari katta fiziologik, psixologik o‘zgarishlar kechayotgan o‘rtog‘i bilan muloqot qilishga katta ehtiyoj sezadi. O‘smir xulq-atvorini baholashda kattalarning qat’iyatliligi, prinsipialligi sinchkov o‘smir tomonidan tahlil qilinadi va qo‘llangan tadbirning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligi yana bir marta tekshiriladi. Shuning uchun rag‘batlantirish va jazolash usulari oqilona, o‘z vaqtida qo‘llanishi kerak. Psixologik adabiyotlarda mehnat bilan jazolash o‘smir psixologiyasida keskin o‘zgarish yasashi ifodalangan. Ma’lumki, hamma o‘quvchilarga mehnatning qahramonlik, yaratuvchilik ekanligi uqtirib kelinadi. Favqulotda mehnatdan jazo sifatida foydalanish ularga mutlaqo yomon ta’sir etadi. Psixologlar o‘tkazgan tadqiqotlardan ko‘rinadiki, o‘smirlarning ko‘pchiligi qat’iyatlik, kamtarlik, mag’rurlik, samimiylik, mehribonlik, dilkashlik, adolatlilik kabi ma’naviy, axloqiy tushunchalari to‘g‘ri anglaydilar. Ularning turmush tajribasida fan asoslarini egallashi natijasida barqaror e’tiqod va ilmiy dunyoqarash, tarkib topadi, shular zamirida axloqiy ideallar yuzaga kela boshlaydi. O‘smirlarning ideallari, negizida orzu, maqsad va ularni ro‘yobga chiqarish rejalari namoyon bo‘la boshlaydi. Muayyan kasbga mayl va qiziqish tug‘iladi. Orzu-istaklar rang-barangligi bilan bir-biridan keskin ajralib turadi.O‘smirlar mulohazasini tadqiq qilish ularda ahloqiy tushunchalar baravar tarkib topmasligini ko‘rsatdi. A.I.Maliovanov o‘smirlarni to‘rtta guruhga ajratadi[1]. 1) xatti-harakatda o‘zlari anglagan, ijobiy qoidalarga tayanib ish tutadigan, so‘zi bilan ishi mos o‘smirlar; 2) axloqiy tushunchalari qiliqlariga mos keladigan o‘smirlar; 3) xatti-harakatlari axloqiy normalar haqidagi bilimlari bilan ajralib turadigan shu bilimlarga mos harakat qilmaydigan o‘smirlar; 4)o‘zlari biladigan axloqiy talablar bilan, kundalik xulq-atvorning aloqasini tushunmaydigan o‘smirlar.

O‘smirlik yoshida psixologik jihatdan eng muhim xislat - voyaga yetish yoki kattalik hissining paydo bo‘lishi alohida ahamiyatga ega. Kattalik hissi ijtimoiy-axloqiy sohada, aqliy faoliyatda, qiziqishda, munosabatda, ko‘ngil ochish jarayonida, xulq-atvorining tashqi shakllarida o‘z ifodasini topadi. O‘smir o‘z kuchi va quvvati, chidamliligi ortayotganini, bilim saviyasi kengayayotganini anglay boshlaydi. Bularning barchasi unda kattalik hissini rivojlantiradi. Mazkur jarayon o‘z navbatida kattalar bilan munosabat va muloqotda noxush kechinmalar paydo qiladi. O‘smirlar bilan munosabatda ularning mustaqilligi, faolligi, tashabbuskorligi, o‘zini boshqarishini hisobga olib, ortiqcha homiylik, g‘amxo‘rlik qilmaslik ijobiy samaralar beradi. O‘smirlarning o‘rtoqlik va do‘stlik tuyg’ulari o‘zaro munosabatlarini o‘rgangan I.V.Straxov, ularning o‘zaro munosabatlarini uchta shaklga: ulfatchilik, o‘rtoqlik va do‘stlikka bo‘ladi. Har bir yuksak tuyg‘uni psixologik jihatdan ta’riflab, ularning rivojlanishini bayon qiladi, yuksak, insoniy tuyg‘ularning shakllanish sur’ati, barqarorligi o‘glil bolalar bilan qizlarda birmuncha farqlanishini ta’kidlaydi[2]. O‘smirlarda ijtimoiy muhitga nisbatan bo‘lgan deformatsiyalashuvning yuzaga kelishi va ularda ijtimoiy pozisiyaning mavjud bo‘lmasligi yoki tusatdan yo‘qolishligi (maktabadan haydalish, oilada nosog‘lom muhitning mavjudligi, ishidan, yaqin kishisidan mahrum bo‘lish) o‘z navbatida

noqonuniy, noaxloqiy pozisiyaning shakllanishiga olib keladi, ya’ni, turli xil g‘ayriqonuniy, noaxloqiy guruhlarga qo‘shilish, referent guruhlarning tashkil etilishiga sabab bo‘ladi. Shu boisdan jinoyatchilik kuchasiga kira boshlagan o‘smir ko‘pincha maktabni tashlaydi, o‘zicha ishga kirmoqchi bo‘ladi, ko‘pchiligi esa umuman foydali mashg‘ulot bilan shug‘ullanmaydilar. Ularda mavhum tafakkur o‘sishi bilan yaqqol-obrazli tafakkurining tarkibiy qismi mutlaqo yo‘qolib ketmaydi, balki saqlanib qoladi va rivojlanadi hamda tafakkurning umumiy strukturasida muhim rol olynaydi. O‘smirning eng muhim xususiyatlaridan yana biri mustaqil flkrlash, aqlning tanqidiyligi tez rivojlanishidir. Bu esa kichik maktab yoshidagi o‘quvchidan farqli o‘laroq, o‘smirning aqliy faoliyatida yangi davr boshlanganini bildiradi.

O‘smir aql-zakovatini kamol toptirish uchun ularga doimo mantiqiy tafakkur usullarini o‘rgatib borish zarur. Bunda mantiqiy xatolarni tuzatib borishni aslo yoddan chiqarmaslik kepak. O‘smirda to‘g‘ri mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda ona tili va adabiyot o‘qituvchisining roli juda muhimdir. U hamma vaqt o‘quvchilarga to‘g’ri jumla tuzishni, ravon mulohaza yuritishni, fikrlashni, yozishni o‘rgatib boradi. Odatda o‘smirlik davri “o‘tish davri”, “krizis davr”, “qiyin davr” kabi nomlarni olgan psixologik ko‘rinishlari bilan xarakterlanadi. Bu yoshdagi o‘smirlarning xatti-harakatida muqobil va yangi sharoitlarda o‘z o‘rnini topa olmaganligidan psixik portlash hollari ham kuzatiladi. O‘z davrida L.S.Vigotskiy bunday holatni “psixik rivojlanishdagi krizis” deb nomlagan. O‘smirlik yoshida ularning xulq-atvoriga xos bo‘lgan alohida xususiyatlarni jinsiy yetilishning boshlanishi bilan izohlab bo‘lmaydi. Jinsiy yetilish o‘smir xulq-atvoriga asosiy biologik omil sifatida ta’sir ko‘rsatib, bu ta’sir bevosita emas, balki ko‘proq bilvositadir[3]. L.I.Zaxarovning fikricha, o‘smirlarning tajovuzkor xatti-harakati tengdoshlari, oilasi va ommaviy axborot vositalarining ta’siri bilan belgilanadi. Tajovuzning barcha asosiy nazariy tushunchalarini ko‘rib chiqib, biz ushbu hodisaning quyidagi umumlashtiruvchi ta’rif bilan qabul qilishimiz mumkin. Agressiya - barcha tirik mavjudotni haqorat qilish yoki unga zarar yetkazishga qaratilgan xatti-harakatlarning har qanday ko‘rinishidir. Bu ta’rif tajovuzning his-tuyg‘u yoki motiv emas, balki xatti-harakatlar modeli ekanligini ta’kidlaydi[4]. Tadqiqotimiz natijasiga ko‘ra o‘rganilgan o‘smirlarning aksariyat qismi ijtimoiy foydali mashg‘ulotlarda qatnashmaydi, gazeta, jurnal yoki badiiy adabiyotlar o‘qimaydilar. O‘qiganlarida ham o‘ziga xos qiziqishlar (rasmlar, sud materiallari, e’lonlar va boshqalar) bilan cheklanadilar. Ularda teatrga tushish, darslik va badiiy kitoblar o‘qish bo‘yicha ko‘rsatgich darajasi ancha sust ekanligi ma’lum bo‘ldi.

Yuqoridagi fikr mulohazalarimizdan ko‘rinadiki, ijtimoiy foydali mashg‘ulot bilan shug‘ullanish o‘smirlarda ijtimoiy foydali, ijobiy pozisiyalarning va ustanovkalarning paydo bo‘lishiga olib keladi. Aksincha holatlarda esa o‘smirlar xulqida salbiy pozisiya va ustanovkalarning shakllanishiga imkoniyat yaratiladi. Tavsiya sifatida aytish mumkinki, mamlakatimiz yoshlarini komil inson qilib kamol toptirish uchun ijtimoiy va ruhiy ehtiyojga asoslangan holda, berilgan vazifalarni mustaqil uddalashga o‘rgatishdan boshlamoq zarur. O‘smirning o‘z faoliyatini va xulq-atvorini shaxsiy xohish irodasiga bo‘ysundirishi mustaqil fikrlashni barqarorlashtiradi, ko‘zlangan maqsadni amalga oshirishga puxta zamin hozirlaydi,

har xil qiyinchiliklar oldida matonat, sabr-toqat tuyg‘ularini namoyish etishga chorlaydi deyish mumkin.

## Foydalanilgan adabiyotlar


1) Малиованов А. Л. Роль нравственного убеждения в формировании дисциплинированного поведения советских подростков: автореф. дис. на соискание ученой степени канд. пед. наук. — М., 1953. — 15 с.

2) Страхов И. В. Психология дружбы школьников-подростков. — Саратов: Изд-во СГПИ, 1969. — 43 с.

3) E.G‘oziyev. Ontogenez psixologiyasi. 176-190 bet. T:.2010

4) Захаров Л.И. Психотерапия неврозов у детей и подростков. Москва 2012 239 с.

5) Usmanov, S., & Arakulov, G. (2026, May). PSIXOLOGIK TEST JARAYONIGA SINALUVCHILARNING SUBYEKTIV TAYYORLIGI: https://doi. org/10.5281/zenodo. 20677406. In *Scientific practical conference* (Vol. 1, No. 2, pp. 393-397).

6) Arakulov, G. (2026, March). SOCIAL-PSYCHOLOGICAL FACTORS OF AGGRESSIVENESS IN ADOLESCENCE. In *Scientific practical conference* (Vol. 1, No. 3, pp. 434-436).

7) Usmanov, S., Arakulov, G., & Hatamov, S. (2026). Zamonaviy testlashtirish nazariyasida maqsadli parametrlarini baholash modellari. *Ijtimoiy-gumanitar sohada ilmiy-innovatsion tadqiqotlar*, *3*(2), 312-320.

8) Usmanov, S., Arakulov, G., & Hatamov, S. (2026). МОДЕЛИ ОЦЕНКИ ЦЕЛЕВЫХ ПАРАМЕТРОВ В СОВРЕМЕННОЙ ТЕОРИИ ТЕСТИРОВАНИЯ. *Scientific and innovative research in the social and humanitarian sphere*, *3*(2), 312-320.

9) Shokirov, A., & Arakulov, G. A. (2025, September). KO ‘P BOLALI OILALARDAGI O ‘ZARO MUNOSABATLARNING BOLALAR PSIXIK RIVOJIGA TA’SIRI. In *Scientific practical conference* (Vol. 1, No. 1, pp. 245-247).


# BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVNING AHAMIYATI


***Saydullayeva Shahlo Sobir qizi***

*Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali*

*2-bosqich doktoranti*

*Tel: +998507133919*

*E-mail: saydullayevashahlo9931@gmail.com*



**Annotatsiya**

Mazkur maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda kompetensiyaviy yondashuvning pedagogik ahamiyati tahlil qilinadi. Unda kompetensiya va kasbiy kompetentlik tushunchalarining mazmuni, bo‘lajak o‘qituvchi kasbiy tayyorgarligining tarkibiy qismlari, kompetensiyaviy